



EMERGENCE OF A PRAGMATIC OBSTACLE IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TRANSLATION STUDIES

Muqimjonova Jumagul Mo'ydinjon qizi

2nd grade English teacher at the 19th general education school,
Uchkoprik district, Fergana region

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13884293>

ARTICLE INFO

Received: 26th September 2024

Accepted: 29th September 2024

Online: 30th September 2024

KEYWORDS

Pragmatics, pragmatic barrier, translation, acts of speech, principle of cooperation, courtesy theory.

ABSTRACT

This article is devoted to the issues of the factors of the pragmatic barrier in the study of Uzbek and English literary translation, the effect of the pragmatic barrier on translation, the prevention of the pragmatic barrier. The article also presents the problem of the pragmatic barrier in the literary translation of Uzbek and English and its solutions through examples.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПРЕПЯТСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ

Муқимжонова Жумагул Мўйдинжон қизи

Учитель английского языка 2 класса 19 общеобразовательной школы Учкоприкского района Ферганской области

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13884293>

ARTICLE INFO

Received: 26th September 2024

Accepted: 29th September 2024

Online: 30th September 2024

KEYWORDS

Прагматика, прагматический барьер, перевод, речевые акты, принцип сотрудничества, теория вежливости.

ABSTRACT

Данная статья посвящена вопросам факторов прагматического барьера в изучении узбекского и английского художественного перевода, влиянию прагматического барьера на перевод, профилактике прагматического барьера. В статье также представлена проблема прагматического барьера в художественном переводе с узбекского и английского языков и пути ее решения на примерах.

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY TARJIMASHUNOSLIGIDA PRAGMATIK TO'SIQNING YUZAGA KELISHI

Muqimjonova Jumagul Mo'ydinjon qizi

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani, 19-umumta'lim maktabi 2-toifali ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13884293>

ARTICLE INFO

Received: 26th September 2024

Accepted: 29th September 2024

Online: 30th September 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbek va ingliz badiiy tarjimashunosligida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi omillar, pragmatik to'siqning tarjimaga



Pragmatika, pragmatik to'siq, ta'siri, pragmatik to'siqni oldini olish masalalariga tarjima, nutq aktlari, bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada o'zbek va ingliz kooperatsiya printsiplari, badiiy tarjimasidagi pragmatik to'siq muammosi va xushmuomalalik nazariyasi.

Yaqin yillardan beri mamlakatimizda turli tillardan o'zbek tiliga adabiyotlar tarjimasiga bo'lgan e'tibor avvalgiga qaraganda sezilarli darajada oshdi. Bunga oxirgi 5 yilda aholi o'rtasida ham kitoblarga qiziqish ortishi sabab bo'ldi. Natijada, tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonlar, nashriyotlar, tashkilotlar ko'paydi. Tarjima sohasiga qiziqish, tarjimadagi muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etishga harakat qilishga bo'lgan harakatlar yuzaga keldi. Tarjima qilish - muayyan tilda turli til vositalari yordamida ifoda etilgan fikrni boshqa yilda ma'nosini o'zgartirmasdan boshqa tilda o'sha til vositalari orqali to'la to'kis ifoda qilishdir. Tarjima qayta yaratish san'atidir. Bu juda mashaqqatli ish bo'lib, tarjimondan ijodkorlik, tajriba, yuqori bilim va ko'plab sohalarning bilimdoni bo'lishni talab qiladi. Tarjima so'zining lug'aviy ma'nosini ko'rib chiqadigan bo'lsak, tarjima - forschaga «tarzabon» so'zidan arabiylashib o'zgargan. «Tarzabon» - chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma'nolarni bildiradi. Arab tiliga «tarjumon» shaklida qabul qilingan bu so'zdan «tarjima» yoki «tarjuma» so'zi hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani «o'tkazish», «qaytarish», «o'girish», «ag'darish» singari atamalar bilan ifoda etganlar. Ko'p yillar davomida «tarjima»sharh, bayon qilish, tushuntirish ma'nolarida ham qo'llanib kelingan. Keyinchalik esa bu so'z badiiy ijodning bir turini ifodalash ma'nosini kasb etdi va ilmiy-filologik terminga aylandi. Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi¹. Har qanday ishni tarjima qilishdan asosiy maqsad tinglovchi yoki o'quvchiga asarning maqsadini, ruhini, undagi g'oyalarni til vositalari yordamida iloji boricha to'la-to'kis, aniq-ravshan ochib berish. Bu maqsadga erishish uchun tarjimon avvalo asl nusxaning g'oyasi, uning maqsadi va mohiyatini to'liq idrok etishi va uni ona tilida bekami ko'st ifodalashi kerak. Bu uchun faqat tilni bilish kifoya qilmaydi. Tarjimon kitob yaratilgan davr, kitob qahramonlarining millati, yozuvchining millati, yozuvchi haqida umumiy ma'lumot, kitobdagi hodisalar ro'y berayotgan vaqt va makon haqida tushunchaga ega bo'lishi shart. Yuqoridagilarsiz, asarning asl mohiyatiga kirib borib bo'lmaydi. Bularning barchasi pragmatikada o'rganiladi.

Tarjima uchun eng kerakli sohalardan biri bu pragmatikadir². Pragmatikaning badiiy adabiyotdagi vazifasi tinglovchi yoki o'quvchiga estetik ta'sir o'tkazish, unda hissiyot uyg'otishdir.

Pragmatikaning tilshunoslikda paydo bo'lishi tilshunoslikda struktur yo'nalishning Ferdinand de Sossyur tomonidan asos solinishiga borib taqaladi. Keyinchalik, R.Jakobson ham muloqotga ta'sir o'tkazuvchi turli xil faktorlar haqida o'z fikrlarini bildirdi. XX asrning o'rtalarida pragmatika tilshunoslikda alohida soha sifatida e'tirof etila boshlandi. Bunga J.L.

¹<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarjima#:~:text=Tarjima%20%E2%80%94%20bir%20tildagi%20matn%20boshqa,tarjima%20va%20boshqa%20turlarga%20ajratiladi>.

² Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B.176.



Ostin va Jon Searlning qarashlari sabab bo'lgan. J.L.Ostin nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqdi va pragmatika rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, nutqda so'zlarning vazifasi faqat axborot yetqazish emas, ular harakatlarni ham ifodalaydilar. Jon Searl esa nutq aktlari nazariyasini rivojlantirdi. Uning fikricha, pragmatika tilning ijtimoiy va funksional jihatlarini o'rganadigan fan bo'lib, har bir nutq akti ma'lum bir niyat va kontekstga ega bo'ladi. Amerikalik olimlar Ch. Pirs va Ch. Morris pragmatikani fan sifatida rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shganlar. Ular til birliklarining kontekstual va funksional jihatlarini tadqiq qilishgan.

Pragmatika fani O'zbekistonda XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida rivojlana boshladi. Bu davrda tilshunoslikning turli yo'nalishlari, jumladan, semantika va sintaksis bilan bir qatorda pragmatika ham o'rganila boshlandi. Bir qator o'zbek olimlari pragmatikaning nazariy asoslarini o'rganib, uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Xususan, M.Hakimov, M.Qurbonova, Sh.Safarov, G'Rahimov, S.Ahmedovalar o'z tadqiqotlari bilan o'zbek tili pragmatikasiga hissa qo'shishgan.

Pragmatik to'siq muammosi jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng o'rganila boshlandi. Chunki bu davrdan boshlab, ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishi, nutq aktlari, kooperatsiya printsiplari va xushmuomalalik nazariyasi kabi tushunchalar rivojlana boshladi. Tarjimada pragmatik to'siqlarning yuzaga kelishiga ikki til o'rtasidagi tafavutlar, o'sha tillarda gaplashadigan aholining dinidagi, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyatidagi farqlar sabab bo'ladi. Shuningdek, faqat yuqoridagilardan tashqari boshqa faktorlar ham pragmatik to'siq muammosiga sabab bo'lishi mumkin. Bularga misol qilib, yozuvchining asardan ko'zlangan asl maqsadini tushunmaslik, asar g'oyasidan bexabarlik, asardagi voqealar sodir bo'layotgan davr xususida ma'lumotning kamligi, asar qahramonlarining shaxsiyati, ijtimoiy kelib chiqishi, millati va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olmaslik. Bularning barchasi asar tarjima qilayotganda pragmatik to'siq muammosiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan: Harper Li qalamiga mansub **"To kill a Mockingbird"** asarini tarjima qilayotganda tarjimon "mockingbird" so'zini g'aliz tarjima qiladi. Bu o'quvchini biroz o'ylantirishi, asarni tushunishiga halal berishi, natijada esa yozuvchining asardan ko'zlangan maqsadiga to'siqlik qilishi mumkin.

"It's a sin to kill a mockingbird."

"Masxaraboz qushni o'ldirish gunoh."

Bu misolda gap grammatik jihatdan to'g'ri, ammo "mockingbird" so'zi o'zining kontekstual va madaniy ma'nosini tarjimada yo'qotib qo'ydi va natijada pragmatik to'siq hosil bo'ldi. "Mockingbird" so'zini yozuvchi asarda adolat va begunohlik ramzi sifatida ishlatgan. Lekin tarjimada bu ma'no ko'rinmadi. Bunday holatlar asarning asliyatini saqlashga to'siqlik qilish, asarning qiymatini tushiradi. Shu sababli har bir tarjimon tarjimaga jiddiy yondashishi, asarning asliyatini saqlashga jiddu jahd qilishi lozim.

Shuningdek, ba'zi tillarda tarixiy shakllangan, urf-odat va an'analarni ifodalaydigan ba'zi so'zlar borki, ularni boshqa tillarga tarjima qilishning umuman iloji yo'q. Bunday holatlarda agar bu so'zlar tarjima qilinsa, tarjimada g'alizlik paydo bo'lishi, ba'zida asarning butun mazmuniga ta'sir qilishi, asar asliyatini saqlab qolishga to'siqlik qilishi mumkin. Bunday so'zlar o'zbek tilida juda ko'p. Masalan: **dasturxon, ko'rpacha, challari, nonsidirar, oqo'rar, fotiha, sunnat to'y, chipron, ko'pkari, kuyovnavkar** kabi. Bu so'zlarni tarjima qilmasdan,



so'zlarga izoh berib ketish mumkin. Ingliz tilida ham o'zbek tiliga bitta so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar juda ko'p. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: **serendipity** (kutilmagan va yoqimli kashfiyot yoki hodisa), **gobbledegook** (murakkab va tushunarsiz tilni ifodalaydi, ayniqsa rasmiy yoki texnik nutqda), **petrichor** (yomg'irdan keyin yerning hidi). Bunga o'xshash misollarni uzun davom ettirsak bo'ladi. Shunga o'xshash so'zlarni tarjimada uchratilsa, ularni bitta so'z bilan tarjima qilishga urinmaslik, balki hissiy bo'yoqdorligini saqlab qolgan holatda izoh berib o'tish kerak.

Shuningdek, ingliz va o'zbek xalqi ikki xil dinga itoat qilishadi. Tarjimada diniy so'zlarni tarjima qilmaslik va ularga izoh berib ketish o'quvchidagi tushunmovchiliklarni oldini oladi, asarni yanada yaxshiroq tushunishiga zamin yaratadi.

Asar tarjimalarida pragmatik to'siq muammosiga sabab bo'luvchi yana bir faktor bu sheva, lahja va jargondagi so'zlarning asarlarda qo'llanilishi. Bunday so'zlarni tarjimada ekvivalentini topish ko'pincha imkonsiz. Sheva, lahja va jargonlarni asarda qo'llashdan maqsad qahramonni ma'lum hududga yoki ijtimoiy guruhga tegishli ekanligini ifodalash va uning shaxsiyatini bu orqali yanada ta'sirli qilib ifodalab berish. Bu asarga obrazlilik va o'ziga xos ruh bag'ishlaydi. Tarjimada esa shevaga oid so'zlarni ifodalash deyarli imkonsiz. Shu sababli, tarjimada tarjimon shevaga xos so'zlar o'rniga adabiy tildan foydalanadi. Chunki britaniyaning ma'lum bir shahridagi shevani xorazmliliklar yoki farg'onaliklar shevasida berib bo'lmaydi. Natijada asarning pragmatik xususiyati tushadi. Boisi, asar tarjimasi asarning asliyati bilan mos kelmay qoldi.

O'zbek va ingliz badiiy tarjimasida yana bir pragmatik muammo bu olmoshlardagi tafavutlardir. Bilamizki, o'zbek tilidagi "siz" va "sen" alohida olmoshlari ingliz tilida faqatgina bitta "you" olmoshi orqali ifodalanadi. Bu olmoshlarni bir-biridan farqlash, qaysi o'rinda "siz", qaysidir o'rinda "sen" dan foydalanish ham tarjimada tarjimondan yuksak salohiyat, pragmatik bilim talab qiladi. Shuningdek, "siz" faqatgina hurmatni bildirmaydi. Ba'zida "kesatq"ni ham ifodalab keladi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilayotgan tarjimon bu ikkisini farqini juda yaxshi bilishi zarur. Yo'qsa, tarjimada uyg'unlikka erishib bo'lmaydi. Misol tariqasida, J.D.Salingerning "The Catcher in the Rye" asari tarjimasidagi quyidagi jumlaning tahlil qilamiz.

"You never really get to know anybody."

Tarjima: "Siz hech qachon hech kimni haqiqatan ham bilib olmaysiz."

Bu tarjima juda rasmiy va uzoq ohangda bo'lib, asliyatdagi samimiylik va yaqinlikni yo'qotadi. Bu jumlaning quyidagicha tarjima qilsa, asliyatni yanada saqlab qolsa bo'ladi:

"Hech qachon hech kimni to'liq bilolmaysan."

Ingliz asarlarini rus tarjima variantidan tarjima qilingan asarlarning ko'pida "you" olmoshini to'g'ri tarjima qilishdagi muammolar ko'p. asarning asl nusxasidan tarjima qilmaslik juda ko'p pragmatik to'siqlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan:

Why, last night, dad, we heard her say, I played it ever so much. Honest –I have been playing it. And it's such a splendid instrument; you don't know how I love it. I didn't like to play loud when you was so sick.

Ну как же, папочка, услышал-ли ты её голос, - вчера вечером я очень много играла. Честное слово я играла. Такой это замечательный инструмент, что ты даже представишь не можешь, как он мне не нравится. Мне не хотелось играть громко, пока ты болен.



Nega unday deysan otajon, - dedi qiz, - kecha kechqurun juda ko'p chaldimku. Xudo haqqi, otajon rostdanam chaldim. Nimasini aytasan shunday ajoyib pianino ekanki, asti qo'yaber, u menga juda, juda yoqib tushdi. Sen betob bo'lganing uchun qattiq chalgim kelmadi.

Bu parcha O.Genrining "Pianino" asaridan olingan bo'lib, bosh qahramonlar qizning otasiga aytgan nutqidir. Asarda qiz juda xushmuomala, otasini hurmat qiladigan, tarbiyali qilib tasvirlangan. Albatta, senlab aytilgan bu nutq qiz haqida o'quvchida chalkash fikrlarga sabab bo'lishi mumkin. Chunki o'zbek tilida ota hech qachon senlanmaydi. Ota juda ulug' shaxs. Uni senlash axloqsizlik, tarbiyasizlik hisoblanadi. Ayyon bo'ladiki, tarjimon muallif asardan ko'zlangan ma'noni aniq yetqazib berish uchun ikki til axloqiy normalariga, milliy qadriyatlar va tildagi tafavutlarga ham e'tibor berishi shart.

Tahlil qilganimizdek, tarjimada pragmatik saviya juda muhim. Pragmatik bilimsiz asliyatdagi ma'no va maqsadni tarjimada aks ettirish imkonsiz. Ikki til o'rtasidagi farqlar, millatlar, dinlar qadriyatlar o'rtasidagi tafavutlar va bular haqida tarjimonda bilimning kamligi pragmatik to'siq muammosiga sabab bo'lishi mumkin.

References:

1. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B.176.
2. Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O'zbek tili va adabiyoti. 2001.
3. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Farg'ona, 2020.
4. O.Genri. Pianino.1909.
5. Kasper, G., & Kellerman, E. (1997). Introduction: Approaches to communication strategies. In G. Kasper, & E. Kellerman (Eds.), Communication Strategies: Psycholinguistic and Sociolinguistic Perspectives (pp. 1-13). London, England: Longman Publishers.
6. Tannen, D. (1984). The Pragmatics of Cross-Cultural Communication. Applied Linguistics, 53, – P. 189-195.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarjima#:~:text=Tarjima%20%E2%80%94%20bir%20tildagi%20matnni%20boshqa,tarjima%20va%20boshqa%20turlarga%20ajratiladi>.